

OT TURKUMIDAGI SO‘ZLAR METAFORASI VA POLIFUNKSIONALLIK

*Yangiyo‘l shahar I-son kasb-hunar
maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Sulaymonova Gulbahor*

Kalit so‘zlar: *metaforik nomlar, umumlisoniy obrazli metafora, individual-uslubiy metafora, mualliflik metafora, konnotativ ma‘no, dennotativ ma‘no.*

Lisoniy materiallardan ma‘lum bo‘lishicha, metafora (grekcha metaphora – ko‘chirish) polisemiyaning jonli, keng tarqalgan va mahsuldor turi hisoblanadi. Metafora bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o‘xshashligini e‘tiborga olib ko‘chirishdir.

Metaforalar tilda tarqalganlik darajasiga ko‘ra uch xil guruhdan iborat bo‘lib, ularning har birida polifunksionallik bo‘ladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Metaforik nomlar. Metaforaning mazkur guruhiga obrazlilik sezilmaydigan, yorqin ko‘chma ma‘noliligi xiralashgan so‘zlar kiradi. Arafa so‘zining asl ma‘nosi: «Ramazon yoki Qurbon hayitidan oldingi kun» (O‘TIL-5; I, 93) demakdir. Masalan: yolg‘on arafa, chin arafa. Shu bilan birga, mazkur so‘z hosila nom sifatida «bayram yoki biror tantanali kundan oldingi kun, umuman, vaqt» ma‘nosida qo‘llanib, nominativlik vazifasini bajarib kelmoqda. Masalan: Yangi yil arafasida qor yog‘armikan desak, umidimiz puchga chiqdi («7x7» gazetasi). Arafa kun yaqinlashmoqda misolida arafa so‘zi polifunksionallik kasb etgan. Chunki mazkur misol tarkibida arafa so‘zi sifat vazifasini bajargan, ya‘ni ad‘yektivlashgan.

2. Umumlisoniy obrazli metaforalar. Bunday metaforalarning ko‘chma, obrazli ma‘nosi aniq bilini turadi. Ular biror narsa-predmet, voqea-hodisa, belgilarning to‘g‘ri, rasmiy, nomlovchi ma‘nosini emas, balki ayni ko‘chma, boshqacha aytganda, figural ma‘nosini ifodalab keladi. Bunday metaforalar ham polifunksionallik kasb etadi. Masalan, olov so‘zi «yuqori haroratda yonib turgan gaz» ma‘nosini ifodalaydi. U matnda «g‘ayrati ichiga sig‘maydigan, yuragida o‘ti bor, jo‘shqin» ma‘nosini anglatishi mumkin: Sobirjon olov yigit ekan. Birpasda paykaldagi bedani o‘rib tashlabdi («Hordiq» gazetasi).

3. Individual-uslubiy yoxud mualliflik metaforalari. Bunday metaforalar ham obrazli bo‘lsa-da, ularga umumtil «mulki»ga aylanmagan, biror yozuvchi, yoxud shoirning asarlaridagina qo‘llangan ko‘chimlar, ya‘ni okkazonalizmlar kiradi. Masalan: «Toshbag‘irlardan ehtiyot bo‘laylik», – dedi Kimsanbek («Bekajon» gazetasi).

Otlarning leksik-semantik guruhlarining har biri metaforalarning ro‘yobga chiqishida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Chunki har qaysi leksik-semantik guruhga oid so‘zlarning ma‘noviy xususiyatlari metafora vositasi bilan ko‘chirishning asosiy yo‘llarini aniqlashtirishga imkon tug‘diradi. Bunday yo‘llar esa quyidagilardan iborat: 1) shakliy o‘xshashlik; 2) belgini ko‘chirish.

Borliqdagi narsa-predmetlarning nomi ot turkumiga mansubdir. Bunday narsa-predmetlarning nomlari konkret ma‘noli otlar jumlasiga kiradi. Shunisi ham borki, biror konkret ma‘noli tushunchani boshqa bir tushuncha bilan ifodalash, ya‘ni ma‘noni ko‘chirish zarurati tug‘ilganda o‘sha narsa-predmetlarning shakli e‘tiborga olinadi. Bunday nomlanish, ayniqsa, yangidan-yangi ixtirolarning paydo bo‘lishiga ham bog‘liqdir. Chunki yaratilgan har bir narsa va uning qismlarini

ifodalash uchun yangidan-yangi so‘z yasayverish, so‘z hosil qilishning iloji bo‘lmay qoladi. Ayni shunday holatda masalaning yechimi ko‘pincha metaforada hal bo‘ladi. Masalan, kishilarning yoxud jonli organizmlarning tana a‘zolaridan birini ifodalovchi oyoq so‘zi shakliy o‘xshatish yo‘li bilan metaforalashib, ko‘chma ma‘nosida qo‘llanayotganligini ta‘kidlab o‘tamiz. Mana bu matnga e‘tibor beraylik: Qayerdandir o‘sha men ko‘rgan olovshar paydo bo‘ldi. Uyni uch marta aylanib, chorpoyamning oyog‘i tomonidagi temirning o‘rtasiga qo‘ndi. Bu safar unda aksim ko‘rinmadi, faqat oyoqlarim jivir-jivir qizib ketdi («7x7» gazetasi).

Matndan oyoq so‘zining, avvalo, asl ma‘no (yurish, turish a‘zosi)da qo‘llanganligi ochiq-oydin anglashilib turibdi. Shu bilan birga, u ko‘chma ma‘nosida ham ishlatilgan: «chorpoyaning yerga tayanib turadigan qismi». Mazkur ta‘rif stol, stul, chorpoya kabilarning shunday qismiga nisbatan ham qo‘llanadi.

Shunday qilib, oyoq so‘zi metafora asosida «stol, stul, so‘ri kabi buyumlarning yerga tayanib turadigan qismi» ma‘nosini kasb etganki, uni «metafora – nom» sirasiga kiritish mumkin. Chunki mazkur ma‘noning obrazlilik mutlaqo sezilmaydi.

“Yerdan ko‘tarilib, havoda muallaq turish uchun xizmat qiladigan, asosining ikki tomonidan joylashgan yoyiq qism» tushunchasi bevosita samolyotga aloqador. U esa “qush va hasharotlarning uchish organi”ni eslatadi. Ya‘ni samolyotning ayni shu qismi qushning qanotini eslatadi. Qiyoslansin: Qush qanoti bilan uchadi // Samolyotlarning katta-kichikligiga qarab, ularning qanotlari uzunligi ham har xil bo‘ladi (“Fan va turmush” jurnali).

Ko‘rinadiki, metafora natijasida, shakliy o‘xshashlik asosida zoologik termin (qushning qanoti) texnik termin (samolyotning qanoti) sifatida qo‘llanmoqda.

Lisoniy dalillardan ma‘lum bo‘lishicha, asl ma‘nosidagi qanot so‘zi o‘xshashlik asosida yana qator tushunchalarni ifodalab kela olishi mumkinligi aniqlandi. Bular quyidagilardan iborat:

1.«Darvoza, eshik, deraza kabilarning tavaqasi»: Dadasi, eshigimizning chap qanoti qiyshayib qolganga o‘xshaydi, yaxshi yopilmayapti («7x7» gazetasi).

2.«Avtomobil, traktor, velosiped kabilarning g‘ildiraklari ustiga biror narsadan himoya qilish uchun o‘rnatilgan moslama»: Daraxtga kelib urilgan «Mercedes-bens»ning o‘ng g‘ildiragi va qanoti qattiq shikastlanibdi («Postda» gazetasi).

Keltirilgan dalillardan konkret ma‘noli qanot so‘zi shakliy o‘xshashlik asosida yana xilma-xil denotativ ma‘noli tushunchalarni ifodalab kelayotganligi ma‘lum bo‘ldi. Shu bilan birga, mazkur so‘z konnotativ ma‘noli tushunchalarni ifodalab kelayotganligi ham aniqlandi. Bular quyidagilardan iborat:

1.Qanot so‘zi tegishli lug‘aviy birliklar qurshovida ijtimoiy-siyosiy ma‘no kasb etgan. Masalan: Liberal partiya dumaning so‘l qanoti hisoblanadi va boshqalar. Qanot so‘zi ayni shu ma‘nosida sinonimiga ega emasligi bilan o‘ziga xos uslubiy ahamiyatga egadir. Chunki u ko‘proq yozma nutqning publitsistik uslubida ishlatib kelinmoqda.

2.Qanot so‘zi shakliy emas, balki mavhumiy o‘xshashligi tufayli «tayanch bo‘lib xizmat qiladigan, madad beradigan kuch» ma‘nosida qo‘llab kelinmoqda. Masalan: Bir o‘g‘lim va bir qizim bor. Ular mening ishonchli qanotlarim. Ha, xuddi shunday («7x7» gazetasi).

Shakliy o‘xshashlik asosida yuzaga kelgan metaforalarning polifunksionalligini aniqlash maqsadida yana ba‘zi misollar keltirish lozim, deb topildi. Bunda “iqtisod rejimi”ga rioya qilindi, ya‘ni so‘zning asl ma‘nosini va uning metaforasini tasdiqlovchi misollar keltiramiz.

Qozon va etak so‘zlarining asl ma‘nolariga misol: Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang, balosi yuqar (Maqol). Choponning etagi bilan burushiq peshonasining terini artidi (Oybek).

Qozon va etak so‘zlarining metaforalariga misol: Karimboy dasturxondagi noz-ne‘matlarni yeyaverib qorni qozon bo‘lganini ham bilmay qoldi («7x7» gazetasi). Aylanma suv etak tomonga borib yetgandan keyin jo‘yakni sug‘orib bo‘lmaydi («Xonadon» gazetasi).

Ot turkumiga mansub so‘zlarning shakliy o‘xshashligi asosida ma‘nosi ko‘chirilgandan keyin ularning polifunksionalligi tobora oydinlasha boradi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Metaforalashuvchi so‘z kabi metafora hosilasi ham yangicha denotativ ma‘nosida qo‘llanaveradi.

2. Metaforalashuvchi so‘zdan farqli o‘laroq metafora hosilasining mazmuni tubdan o‘zgaradi, ya‘ni o‘zgacha ma‘nosida ishlatila boshlaydi.

3. Metaforik so‘zning uslubiy xosligi o‘zgaradi, ya‘ni metaforalashuvchi so‘zlar o‘zgacha sohalarda «faoliyat» ko‘rsata boshlaydi (zoologik termin – texnik termin kabi).

4. Metaforik so‘z asosida yangidan-yangi so‘zlar yasalishi mumkin.

5. Metaforik so‘z, albatta, konnotativlik kasb etishi uchun xizmat qiladi.

Ot turkumiga mansub so‘zlarning bir qanchasi «belgilik» ma‘nosini ham anglatib kelishi o‘zbek tilida keng tarqalgan lisoniy hodisalardan biridir. Bunday so‘zlar asl ma‘nolarida belgini anglatmaydi. Biroq biror narsa nomini boshqa bir narsaga o‘xshashligi tufayli belgi sifatida ko‘chma ma‘noda qo‘llanganda belgi ma‘nosi reallashadi. Ma‘lumki, po‘lat qattiq metallarning biri. Po‘lat ishlab chiqarmoq deyilganda mazkur so‘z asl ma‘nosida qo‘llangan. Shu bilan birga, ushbu so‘z metafora asosida konnotativ ma‘no kasb etishi ham mumkin. Masalan: Bizning po‘lat qudratimiz birligimizdadir (M. Shayxzoda). Po‘lat yag‘rinlarni ko‘targan yerlar ko‘m-ko‘k... (H. Olimjon) Bu o‘rinda po‘lat so‘zi «kuchli, zabardast, qudratli» ma‘nosini ifodalab kelmoqda. Chunki insonning ana shunday xususiyatga ega ekanligi po‘latning qattiqligiga o‘xshatilgan. Ot turkumiga oid so‘zlar sifat vazifasini bajarganda, ya‘ni ad‘yektivlashganda ma‘noviy o‘zgarish ro‘y berishi mumkin. Bu o‘rinda metaforaning shunday turining real ekanligini tasdiqlovchi ayrim mikro matnli misollar keltirish bilan cheklanamiz: po‘lat qal‘a, po‘lat qo‘llar; olmos satrlar; metin saflar; kumush qalb; temir intizom; tosh nok va boshqalar.

Demak, ot turkumidagi so‘zlar ad‘yektivlashganda ham metaforik yo‘l bilan yangicha ma‘no kasb etishi mumkin ekan. Bunday holat esa otlarning polifunksionalligini tasdiqlovchi qo‘shimcha dalillardan biridir.

Ot turkumidagi so‘zlarning metafora vositasida paydo bo‘lgan hosilaviy ko‘chimlari haqida gap ketar ekan, quyidagi holatlarni ta‘kidlash joiz: 1) so‘zlar faqat bitta qo‘shimcha ma‘noga ega bo‘ladi; 2) so‘zlar ikki va undan ortiq ma‘no kasb etadi. Bunday holat paydo bo‘lgan ko‘chimlarning xarakteriga ta‘sir etadi. Masalan, birinchi ruknga kiruvchi so‘zlarning hosilasi yo denotativ, yo konnotativ ma‘noda qo‘llanishi mumkin. Ikkinchi rukndagi so‘zlarda esa ma‘nolarning ikkala turi ham aks etgan. Tabiiyki, bunday holatlar so‘zlar polifunksionalligini aniqlash me‘yorlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

Yakka ko‘chimdan iborat so‘zlarni qanday ma‘no anglatishiga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin: 1) denotativ ma‘noli ko‘chim; 2) konnotativ ma‘noli ko‘chim.

I. Borliqdagi yoxud yangidan paydo bo‘lgan narsalar yoki ularning qismlarini ifodalash maqsadida mavjud so‘zlarning ma‘nosi ko‘chirib ishlatilganda, birinchi navbatda, ularning denotativ

ma’nosi asosida o‘zgacha denotativ ma’no anglatadi. Masalan, butoq so‘zining «yon shoxlar» sememasi asosida «biror narsaning tarqalgan qismlari, shoxobchalari» ma’nosi ham anglashiladi. Somoniy shajarasining so‘nggi butog‘i bo‘lgan podsho Nuh bin Mansur kasalmand odam edi (M. Osim).

Ichak «odam va hayvonlarning ovqatni, yemishni hazm qilish organi» demakdir. U so‘zlashuv nutqida ham metaforik qo‘llanishda bo‘lib, «rezinka yoki brezentdan yasalgan trubka, shlang» (O‘TIL-5; II, 249) ma’nosini anglatadi. Masalan: Ikki epchil yigit bochkani salqinga olib, rezinka ichak shlanga bilan kosalarga pivo quya boshladi (S. Ahmad).

Bunday so‘zlarning faqat bitta hosilaviy ma’noda, ya’ni denotativ ma’noda qo‘llanganligini ularning nutq jarayonida kamroq foydalanilishi omili bilan izohlash mumkin.

2. Nutq ko‘rkamligi, obrazlilik, estetiklik kabi talablar taqozosi bilan ayrim so‘zlar metafora vositasida konnotativ ma’no kasb etishi mumkin. Misollar keltiramiz.

«Bo‘yash uchun ishlatiladigan modda» bo‘yoq deb ataladi. Bu – uning denotativ ma’nosi. Uning metaforik hosilasi esa konnotativ ma’nosida san‘at, filologiya kabi sohalarning egalari nutqida ishlatib kelinadi. Masalan: Badiiy asar tilining bo‘yog‘i har xil qochirim, o‘xshatish, metafora kabilarda aniq ko‘rinib turadi (O‘TA).

Shu xildagi metaforalar haqida aniqroq tasavvur hosil qilish maqsadida quyidagi qiyosiy tarzda misollarni keltiramiz:

Farhodlar ter to‘kar tunu kun bunda, // Metinlar zarbiga chiday olmas tosh (Uyg‘un). - Shiddatingdan metin tog‘lar bo‘lar mum (H. Olimjon).

Firuza, la‘l, zumrad kabi nodir toshlar Sharqda juda mashhur va qadrli bo‘lgan (M.Mirboboyev). - Tuman xayoliga quyulgan, // Pag‘a bulut, firuza osmon (H. Olimjon).

Ma’nolari soni bir nechta bo‘lgan metaforalashgan so‘zlarni qanday ma’noviy xususiyatlarni ifodalashi nuqtayi nazaridan guruhlariga ajratish mumkin. Bular quyidagilardan iborat: 1) ko‘chimplari denotativ ma’noli so‘zlar;

2) ko‘chimplari konnotativ ma’noli so‘zlar; 3) ko‘chimplari aralash ma’noli so‘zlar.

I.Ko‘chimi denotativ ma’noli so‘zlar. Konkret ma’noli so‘zlar ko‘pincha metafora asosida yangi ma’noda qo‘llanar ekan, konkret ma’noli so‘z sifatida ham ishlatilaveradi.

Quyidagi misolga e’tiborni qaratamiz: Umuman, ustoz san’atkorlarni eslab, hayotligida qadrlab, ularning xolidan tez-tez xabar olib turishadi («Hordiq» gazetasi). Misoldagi denotativ ma’noli ustoz so‘zi denotativ ma’noda qo‘llangan bo‘lsa-da, «tarbiyalovchi, murabbiylik qiluvchi» semasi bilan polifunksionallik kasb etgan.

Mana bu misoldagi asl ma’nosi denotativ bo‘lgan ishchi so‘zi ham hosila ma’nosida denotativ ma’no anglatayotganligi ma’lum bo‘ladi: Sen fabrikada oddiy ishchi qiz bo‘lsang, Toshkentda nima bor? Kimning ko‘zi uchib turibdi senga? («Hordiq» gazetasi)

2.Ko‘chimi konnotativ ma’noli so‘zlar. O‘zbek tilida shunday so‘zlar ham borki, ular yuqoridagilardan farqli o‘laroq, asl ma’nosidan tashqari, faqat bitta konnotativ ma’nosidagina ishlatib kelinadi. Dalil uchun misollar keltiramiz: Ergash churq etmay qo‘lidagi taxtani jahli bilan chiqindi ustiga uloqtirdi (A.Mirahmedov). Misolda chiqindi so‘zi denotativ ma’nosida qo‘llangan. Quyidagi misolda esa mazkur so‘z konnotativ, ya’ni «pastkash, tuban, yaramas» ma’nosida ishlatilgan: Jahli chiqqan Akrom aka dedi: «E, sizdaqa chiqindi odam hatto o‘g‘itga ham yaramaydi» (J. Sharipov).

3. Ko‘chimi ham denotativ, ham konnotativ ma‘noli so‘zlar. Mazkur ruknga oid so‘zlarning polifunksionalligi shundan iboratki, ularning metaforik ko‘chimlari, birinchidan, denotativ, ikkinchidan, konnotativ ma‘nolarga ega bo‘ladi. Bunday holat ham o‘zbek tilidagi so‘zlarning serqirraligini, purma‘noligini tasdiqlaydi. Chunki bitta so‘zga bir nechta hosilaviy ma‘noni yuklash yo‘li bilan ham kishilar nutq jarayonida nutqning osonlashishiga intiladi.

Misol uchun qiltanoq so‘zini olib ko‘raylik. Uning denotati (asl ma‘nosi) «baliqning ignasimon ingichka uzunchoq suyagi» demakdir. Masalan: Bolam, ehtiyot bo‘l, qiltanog‘i tomog‘ingga tiqilib qolmasin (A. Qahhor).

Bug‘doy, arpa, sholi kabi donli ekinlar pishgandan keyin qiltanoqlari quruqlashib qoladi («Botanika»). Misolda qiltanoq so‘zi denotativ ma‘noda qo‘llangan. Chunki u ko‘rsatilgan o‘simliklar a‘zolaridan birining nomini anglatadi, demak, nominativlik vazifasini bajaradi.


Ayni shu baliq va o‘simlik a‘zosining ingichkaligi (ignadan ham ingichkaligi), uzunchoqligiga o‘xshashligi asosida juda oriq, ingichka odamga nisbatan ishlatilyapti: O‘g‘limning muhabbati shu qiltanoq qizga tushgani meni hayratlantirib qo‘ydi («Bekajon» gazetasi). Misoldagi qiltanoq so‘zi o‘rnida qiltiriy so‘zini ham qo‘llash mumkin: qiltiriy qiz.

Ko‘rinadiki, qiltanoq so‘zi ko‘chma ma‘noda qo‘llanib, konnotativ ma‘no anglatgan. U ayni shu ma‘nosi bilan yozma yoxud og‘zaki nutqning badiiy uslubiga xosligi bilan yuqoridagi ma‘nolaridan farq qiladi.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibiga murojaat qilinar ekan, unda ko‘plab so‘zlar metafora vositasida ayni bitta so‘zning hatto bir nechta denotativ yoxud konnotativ ma‘nolarda qo‘llanayotganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Lisoniy materialga e‘tibor qaratilganda, konkret ma‘noli ot ko‘chma ma‘nosida konkret ma‘noli ot vazifasini ham, konkret ma‘noli mavhum (abstrakt) ot ma‘nosini ham ifodalab keladi. Mavhum otlar xususida ham shunday deyish lozim.

Pirovardida, aytilganlarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin.



I. Konkret ma‘nodan → konkret ma‘noga. Turmushda narsa-predmetlarning nomlari ko‘pincha metafora yo‘li bilan ma‘nosi ko‘chirilganda konkret ma‘nolarni anglatadi.

Boshqa tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham hayvonot olamiga oid nomlarning ko‘chma ma‘no kasb etishi tez-tez uchrab turadigan nolisoniy omildir. Ayniqsa, bunday nomlar kishilarga,

shaxslarga nisbatan ko‘chirilganda konkretlik namoyon bo‘ladi. Shunday holat denotativ ma‘noning konnotativ ma‘noga o‘tishiga olib keladiki, bu ot so‘zlar leksik-semantik bir guruhining, aniqrog‘i, hayvonlar nomlarining polifunksionalligini tasdiqlaydi.

«Hayvon nomi → shaxs nomi» qabilidagi metaforalashishni ikki turga bo‘lish mumkin: 1) «hayvon nomlari → ijobiy xislatli shaxs nomlari»;

2) «hayvon nomlari → salbiy xislatli shaxs nomlari».

1. «Yaxshi fazilatlar, xislatlarga ega bo‘lgan, ibratli shaxs» ma‘nosini ifodalash maqsadida bir qancha hayvonlarning nomlaridan foydalanib kelinadi.

Yirtqich qushlar turkumining bir turi bo‘lmish lochin so‘zi ovchilar tomonidan qush ov qilishga o‘rgatilgan lochinning ephilligi, chaqqonligi tufayli uni ifodalovchi so‘z «jasur, g‘oyat g‘ayratli, shijoatli, qo‘rqmas» ma‘nosini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: Mamajon lochin yigit, serharakat betinim

(Q. Muhammadiy).

Xo‘roz – «tanti, mard, hech narsani ayamaydigan» ma‘nosida: Bugun Po‘latbek bir yuz yigirma kilogramm paxta teribdi. Qoyil, bunday ishni xo‘roz yigit bajaradi («Bekajon» gazetasi).

Qo‘chqor – «zo‘r zo‘ravon, zabardast» ma‘nosida: Yurtimizning qo‘chqor yigitlari kurash chempionatiga zo‘r tayyorgarlik ko‘rishmoqda («Sport» gazetasi).

To‘ti – «juda go‘zal, chiroyli, nozanin» ma‘nosida: Sira tugamas to‘ti qizlar hangomasi (So‘zlashuvdan).

2. «Hayvon nomi → salbiy xislatli shaxs nomlari» paradigmasi asosida hosil bo‘lgan salbiy ma‘noli paradigmatic metaforalar ham qo‘llaniladi:

Burgut – «yirtqich, yovuz shaxs» ma‘nosida: Muomalasi yaxshi bo‘lgani bilan uning panjasidan chayon ham omon chiqolmaydigan, burgut odam bu muttaham («Hordiq» gazetasi).

Eshak – «befahm, biror narsaga qiziqmaydigan, fahmsiz» ma‘nosida: Hoy eshak miya! Mana shu qariyaga joyingni bersang asakang ketadimi? («Bekajon» gazetasi)

It – «o‘zgalarning manfaatini himoya qilib, ko‘r-ko‘rona xizmat qiluvchi, boshqalarga zulm o‘tkazuvchi» ma‘nosida: «Shukurning it odamidan boshqa odam qurib ketganmidi?»— dedi Fozil («Hordiq» gazetasi).

Tulki – «o‘ta ayyor, makkor» ma‘nosida: Rostdanam, bu qari tulki erdan hech narsani yashirib bo‘lmaydi (T.Malik).

Kishilar yoxud hayvonlarning tana a‘zolari nomlari ham metafora yo‘li bilan ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi mumkin. Masalan, yuqoridagilardan tashqari zoologik nomlar kishilarning tana a‘zolari nomlarining ham aniqlovchi komponenti vazifasini bajarayotganini badiiy asarlardagi quyidagi metaforalar tasdiqlaydi: Xayr sizga, ikki ohu ko‘z! (H. Olimjon) Qaldirg‘och qoshlaring qalbimni qattol, // Yoshlarim yomg‘irday jalalab ketdi (Saodat Fayziyeva).

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi jonsiz narsalarning nomlarini ifodalovchi so‘zlarning ko‘pligi bilan ham ajralib turadi. Ona tilida jonsiz narsalarning nomlari ham tez-tez ko‘chma ma‘noda qo‘llaniladi. Bunda inson hayotida katta rol o‘ynayotgan uy-ro‘zg‘or buyumlari leksik-semantik guruhi muhim rol o‘ynaydi.

Uy-ro‘zg‘or buyumlaridan biri qaychi deb ataladi. Quyidagi misolda mazkur so‘z denotativ ma‘nosida qo‘llangan: Tirnoqni o‘tkir qaychida olmoq. Biroq mikromatn tarkibida qaychi so‘zi «o‘zaro qiz berib, qiz olishgan» ma‘nosini ifodalab keladi. Masalan: Onasi, ertaga qaychi qudamiz

kelarmish, tayyorgarligingni ko‘rib qo‘ysang (So‘zlashuvdan). Ko‘rinadiki, qaychi quda birikmasi denotativ ma’noga ega.

Kurak so‘zi aslida uy-ro‘zg‘or buyumlaridan birini anglatadi. Shu bilan birga kurak tish birikmasi tarkibida «yuqori qatoridagi oldingi ikki yalpoq» ma’nosini ifodalab kelmoqda. Mazkur birikma ham denotativ ma’noda qo‘llangan: Yoshni bilib olishga imkon beradigan ancha aniq belgi kurak tishlardir (N. Mavlonov).

Kigiz so‘zi «yungdan tayyorlanadigan qalin pishiq palos» ma’nosini bildiradi. U birikma tarkibida aniqlovchilik vazifasini ham bajaradi. Bu bilan kigiz so‘zi ko‘chma tarzida denotativ ma’no anglatadi. Masalan, Kigiz kiyim, seni men // Yoringa alishtirdim (H. Olimjon).

Misollardagi uy-ro‘zg‘orga aloqador bunday so‘zlarning ikkilamchi, hosilaviy ma’nolari denotativ ma’nolarni anglatib keladi.

Shu bilan birga, boshqa leksik-semantik guruhdagi qator so‘zlar ham hosila ma’noda qo‘llanayotganligini ko‘rish mumkin. Quyida shunday so‘zlarning ayrimlarini namuna tariqasida keltirib o‘tamiz:

Tuvak so‘zining ma’nolaridan biri «konussimon sopol idish» demakdir. U tuvak gul birikmasi tarkibida «tuvakda o‘stiriladigan» tarzidagi hosila ma’noni ham ifodalaydi.

G‘uncha so‘zining denotati quyidagicha: «Hali ochilmagan, gulbarglari hali yozilmagan gul». Mazkur so‘z badiiy uslubda qo‘llanib, «g‘unchadek, g‘unchaday, g‘uncha yanglig‘» ma’nosida ham qo‘llanadi (albatta, birikma tarkibida): Salima aya tevarakka olazarak bo‘lib turgan edi, xushbichim, g‘uncha lab bir qiz kirib keldi («Darakchi» gazetasi).

«Tandirda yopilgan kichkina, dumaloq non» – bu kulcha so‘zining asl ma’nosi. Mazkur predmet shunday shaklga ega bo‘lganligidan, u shunday shaklli «yuz (bet)»ga nisbatan ham qo‘llanib, hosila – konnotativ ma’no ham kasb etgan: Xatni o‘qib, Abdurahmonovning kulcha yuziga qon yugurdi (M. Muhamedov).

II. Konkret ma’nodan → mavhum ma’noga. Lug‘aviy boyligimizda qo‘llanilayotgan bir qancha konkret ma’noli so‘zlar shu boylikning «mavhum ot» qismini to‘ldirib turadi. Bunda metaforaning roli benihoya kattadir. Bunday holatda muayyan bir so‘zning denotati o‘zgacha ma’noni ifodalaydi. Masalan, uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan asboblardan biri kalit deb nomlangan. U konkret ma’noli so‘z: «Qulfni ochish va berkitish uchun ishlatiladigan metall asbob» (O‘TIL-05). Uning «biror narsani ochish» ma’nosi asosida ko‘chma ma’no yuzaga kelgan: Mag‘rur ovoz berar «odam» degan so‘z! // Tilsimlar kaliti uning qo‘lida (T.To‘la). «G‘am-g‘ussaning kaliti mehribonlikdadir», – dedi yuragi shoshib Po‘latboy («Sanam» gazetasi).

Keyingi yillarda kalit so‘zi yangi ma’noga boyiganligini ta’kidlab o‘tamiz. Bu, birinchidan, nolisoniy omil ta’sirida, ya’ni mamlakatimizda test sinovlarining joriy etilishi bilan bog‘liqdir: «Test sinovlarida berilgan test topshiriqlarining eng to‘g‘ri javoblarini aks ettiruvchi jadval; to‘g‘ri javoblar ro‘yxati» (O‘TIL-5, 298): Bolalar sinovlarga tayyorlanishga kirishib ketishdi. Ro‘yxatdagi savollarga berilgan javoblarning to‘g‘ri yoki to‘g‘ri emasligini kalit orqali tekshirib ko‘rishdi. Ikkinchidan, kalit so‘zi ko‘rsatilgan omil ta’sirida yangi bir ma’noda qo‘llana boshladi. Ma’lumki, dissertatsiya avtoreferatining so‘ngida o‘z ifodasini topgan, uning mohiyatini ko‘rsatib beradigan asosiy tayanch so‘z yoxud birikmalar keltiriladiki, u ham kalit so‘zi bilan ifodalanadigan bo‘ldi: Avtoreferatning kaliti o‘n beshta so‘zdan oshmasligi kerak. Shunisi ham borki, mazkur tushuncha kalit so‘z birikmasi bilan ham ifodalanyapti.

Demak, keltirilgan dalillardan kalit so‘zining mazkur ma’nosi kitobiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi.

III. Mavhum ma’nodan → mavhum ma’noga. Asosan ot turkumiga mansub tushunchalarni anglatuvchi mavhum so‘zlarning ham metaforalashish jarayoni ro‘y berganligi va ro‘y berayotganligi muhim lisoniy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Masalan, nafas so‘zi «o‘pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo» ma’nosini anglatadi, o‘tkir nafas duoxon deyilganda esa, «kuchli, zo‘r» ma’nosini anglatib keladi.

Bu ot turkumiga mansub so‘zlarning polifunksionalligi keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. To‘g‘ri, mavhum ma’noli so‘zlar konkret ma’noli so‘zlarga nisbatan metaforalashish jarayonida passivroq ko‘rinadi. Shunday bo‘lsa-da, mazkur jarayon so‘zlarning polisemantikligini tasdiqlovchi qo‘shimcha omil hisoblanadi.

Xullas, ot turkumidagi so‘zlar polisemiyasining metafora turida so‘zlarning polifunksionalligi yaqqol namoyon bo‘ladi.